

## DIAGNOSIS OF ATOPIC DERMATITIS IN CHILDREN

**Khodjayeva Shakhzoda Komronovna**

Independent Researcher (Resident), Republican Specialized Scientific and  
Practical Center of Allergology and Clinical Immunology.

[xodjayeva.shaxzoda@mail.ru](mailto:xodjayeva.shaxzoda@mail.ru)

**Abstract.** Atopic dermatitis is a common chronic allergic disease in children, and its early diagnosis is important in preventing severe disease and relapses. To assess the effectiveness of clinical, laboratory and allergological diagnostic methods for atopic dermatitis in children.

**Keywords:** atopic dermatitis, children, diagnostics, allergy, IgE, SCORAD, cytokines, early diagnosis.

**Annotatsiya:** Atopik dermatit bolalarda keng tarqalgan surunkali allergik kasallik bo'lib, uning erta diagnostikasi kasallikning og'ir kechishi va residivlarini oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarda atopik dermatitning klinik, laborator va allergologik diagnostika usullarining samaradorligini baholash.

**Kalit so'zlar:** atopik dermatit, bolalar, diagnostika, allergiya, IgE, SCORAD, sitokinlar, erta diagnostika.

**Аннотация.** Атопический дерматит — распространенное хроническое аллергическое заболевание у детей, и его ранняя диагностика важна для предотвращения тяжелых форм заболевания и рецидивов. Цель исследования - оценить эффективность клинических, лабораторных и аллергологических методов диагностики атопического дерматита у детей.

**Ключевые слова:** атопический дерматит, дети, диагностика, аллергия, IgE, SCORAD, цитокины, ранняя диагностика.

**Kirish.**

Atopik dermatit bolalar orasida eng ko‘p uchraydigan surunkali yallig‘lanishli allergik kasalliklardan biri bo‘lib, uning tarqalishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda [1,4,5,6]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, atopik dermatit bolalarning 10–20% da uchraydi va kasallik ko‘pincha erta yoshda boshlanadi. Bolalarda atopik dermatitning erta diagnostikasi kasallikning og‘ir kechishi, surunkali shaklga o‘tishi va allergik kasalliklar marshining shakllanishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega [2,3,7]. Shu munosabat bilan atopik dermatitning zamonaviy diagnostik mezonlarini o‘rganish va takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi bolalarda atopik dermatitning klinik, laborator va allergologik diagnostika usullarining samaradorligini baholash va kasallikni erta aniqlash imkoniyatlarini takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot materiallari sifatida 2023–2025 yillar davomida Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy amaliy markazida kuzatuv ostiga olingan 3–12 yoshli 120 nafar atopik dermatit bilan og‘rigan bolalar ma‘lumotlari tahlil qilindi. Nazorat guruhini 30 nafar sog‘lom bolalar tashkil etdi. Barcha bolalarda klinik, allergologik, laborator va instrumental tekshiruvlar o‘tkazildi. Klinik tekshiruvda anamnez yig‘ish, teri holatini baholash, qichishish intensivligini aniqlash, kasallikning lokalizatsiyasi va og‘irlik darajasi SCORAD shkalasi bo‘yicha baholandi. Laborator tekshiruvlar doirasida umumiy IgE, eozinofillar miqdori, sitokinlar profili, shu jumladan IL-4, IL-5, IL-13 ko‘rsatkichlari aniqlandi. Allergologik tekshiruv sifatida skin-prick test va spesifik IgE tahlillari o‘tkazildi.

Material va usullar: 2023–2025 yillarda 3–12 yoshli 120 nafar atopik dermatit bilan og‘rigan bolalar va 30 nafar sog‘lom bolalar tekshirildi. Klinik baholash SCORAD shkalasi asosida olib borildi. Laborator tekshiruvlarda umumiy IgE, eozinofillar va sitokinlar (IL-4, IL-5, IL-13) aniqlangan. Allergologik tekshiruvlar skin-prick test va spesifik IgE yordamida o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalarda atopik dermatitning asosiy klinik belgilari teri qichishishi (92,5%), teri quruqligi (88,3%), eritema (81,6%), lixenifikatsiya (56,7%) va qaytalanuvchi kechish (63,3%) holatlarda kuzatildi. Kasallikning yoshga xos klinik belgilari tahlil qilinganda, 3–5 yoshli bolalarda eksudativ o'zgarishlar va yuz sohasida lokalizatsiya ko'proq uchrasa, 6–12 yoshli bolalarda bukilma sohalarda lixenifikatsiya va quruqlik ustunlik qilganligi aniqlandi. Laborator tekshiruv natijalariga ko'ra, umumiy IgE darajasining oshishi 78,4% bolalarda, eozinofiliya 64,2% holatlarda qayd etildi. sitokinlar tahlilida IL-4 va IL-13 darajasining ishonchli oshishi kuzatildi ( $p < 0,05$ ), bu esa atopik yallig'lanish jarayoni faolligini ko'rsatadi. Allergologik tekshiruvlar natijasida oziq-ovqat allergenlariga sensibilizatsiya 46,7%, ingalyatsion allergenlarga sezgirlik 38,3% holatlarda aniqlandi. Differensial diagnostika jarayonida seboreya dermatiti, kontakt dermatiti, psoriaz va qo'tir kabi kasalliklar inkor etildi. SCORAD shkalasi bo'yicha bolalarning 41,7% da kasallik yengil, 38,3% da o'rtacha va 20,0% da og'ir darajada kechayotgani aniqlandi. Tadqiqot natijalari bolalarda atopik dermatit diagnostikasida klinik belgilari bilan bir qatorda immunologik va allergologik tekshiruvlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Erta diagnostika va kompleks tekshiruvlar kasallikning og'ir kechishini oldini olish, individual davolash strategiyasini tanlash va residivlarni kamaytirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, bolalarda atopik dermatitning diagnostikasi klinik, laborator va allergologik tekshiruvlar asosida kompleks yondashuvni talab qiladi va zamonaviy diagnostik mezonlarni qo'llash kasallikni erta aniqlash hamda samarali davolash taktikasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Natijalar. Teri qichishishi 92,5%, quruqlik 88,3%, eritema 81,6%, lixenifikatsiya 56,7% holatlarda kuzatildi. Umumiy IgE oshishi 78,4%, eozinofiliya 64,2% bolalarda aniqlangan. Oziq-ovqat allergenlariga sezuvchanlik 46,7%, ingalyatsion allergenlarga 38,3% holatda aniqlangan.

**Xulosa.** Bolalarda atopik dermatit diagnostikasida klinik belgilar bilan birga laborator va allergologik tekshiruvlar muhim ahamiyatga ega. Kompleks yondashuv kasallikni erta aniqlash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Асадова Д.Ш., Каримов Б.Ш. Персонализированный подход к терапии atopического дерматита у детей в Республике Узбекистан // *Здравоохранение Узбекистана.* – 2023. – №2. – С. 51–58.
2. Каримов Б.Ш., Хамраев Н.У. Клинико-иммунологическая эффективность биологических препаратов у пациентов с тяжелым atopическим дерматитом // *Вестник ТГМУ.* – 2024. – №3. – С. 48–55.
3. Разикова Г.Р. Эффективность персонализированного алгоритма лечения пациентов с atopическим дерматитом//*Мед.журнал Узбекистана.*-2025, №6, стр.95-100
4. Разикова И. С., Разикова Г. Р. Совершенствование аллергологической службы узбекистана // *Аллергическое и иммунопатологические заболевания-проблема XXI века.* – 2019. – С. 23-24.
5. Разикова И. С. и др. Распространенность полиморфизмов RS1800925, RS20541 гена IL13 при atopическом синдроме в республике Узбекистан // *E-Conference platform.* – 2025. – Т. 1. – №. 17-noyabr 2025. – С. 213-213.
6. Разикова И. С., Айдарова Н. П., Ишмухамедова Ш. Б. Дерматореспираторный синдром и atopический марш: диагностика, клиника // *Central Asian Journal of Medical and Natural Science.* – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 37-41.
7. Разикова И. С. и др. Оценка динамики различных методов лечения при респираторных аллергиях // *Первичные иммунодефициты и COVID-19.* – 2023. – С. 84-91.